

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UO'K: 376.1:78(575.1)

**MAXSUS TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O'ZBEK MUSIQIY TAFAKKUR ASOSIDA
NOGIRONLIGI BO'LGAN O'QUVCHILARNING MUSIQA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI****ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ С
ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В СИСТЕМЕ СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ****PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MUSICAL CULTURE OF STUDENTS
WITH DISABILITIES IN THE SYSTEM OF SPECIAL EDUCATION BASED ON MODERN UZBEK
MUSICAL THINKING****Tangirqulov Sirojiddin Baxtiyorovich** 
tadqiqotch**Annotatsiya**

Mazkur maqolada maxsus ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri asosida tahlil etilgan. Musiqa san'ati maxsus ehtiyojli bolalarning emotsional holatini muvozanatlashtirish, estetik idrokni shakllantirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek xalq musiqasi va zamonaviy bastakorlar ijodining defektologik ta'limda qo'llanilishi, musiqiy terapiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarda ijodiy faollik, madaniy did va o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье проанализированы вопросы развития музыкальной культуры учащихся с особыми образовательными потребностями в системе специального образования на основе современного узбекского музыкального мышления. Показано, что музыкальное искусство играет важную роль в гармонизации эмоционального состояния, формировании эстетического восприятия и облегчении процесса социальной адаптации детей с ограниченными возможностями. В статье также раскрыты перспективы применения узбекской народной музыки и творчества современных композиторов в дефектологическом обучении, а также возможности развития творческой активности, культурного вкуса и самосознания учащихся посредством музыкальной терапии и инновационных педагогических технологий.

Abstract

This article analyzes the issues of developing the musical culture of students with disabilities in the special education system based on modern Uzbek musical thinking. It is shown that musical art plays an important role in balancing the emotional state, shaping aesthetic perception, and facilitating the process of social adaptation of children with special educational needs. The article also highlights the prospects for using Uzbek folk music and the works of contemporary composers in defectological education, as well as the potential of musical therapy and innovative pedagogical technologies in fostering students' creativity, cultural taste, and self-awareness.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim, defektologiya, o'zbek musiqiy tafakkuri, musiqiy madaniyat, nogironligi bo'lgan o'quvchilar, estetik tarbiya, musiqiy terapiya, innovatsion pedagogika, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy integratsiya.

Ключевые слова: специальное образование, дефектология, узбекское музыкальное мышление, музыкальная культура, учащиеся с ограниченными возможностями, эстетическое воспитание, музыкальная терапия, инновационная педагогика, творческое развитие, социальная интеграция.

Key words: special education, defectology, Uzbek musical thinking, musical culture, students with disabilities, aesthetic education, music therapy, innovative pedagogy, creative development, social integration.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida har bir shaxsning qobiliyatini namoyon etish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish insonparvar jamiyatning eng muhim mezoniga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, maxsus ta'lim tizimi — nogironligi

PEDAGOGIKA

bo'lgan bolalarning shaxsiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik muhit sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirish masalasi nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki ularning ruhiy barqarorligi, hissiy dunyosini boyitish, o'zini anglash va jamiyatda to'laqonli ishtirok etishiga yordam beruvchi samarali pedagogik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa san'ati inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi, tuyg'ularni uyg'otuvchi, ijtimoiy uyg'unlik va mehr-oqibat tuyg'usini mustahkamlovchi madaniy hodisa sifatida nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda alohida o'rin tutadi.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri — xalqimizning ko'p asrlik madaniy merosi, milliy qadriyatlari va ruhiy dunyosini o'zida mujassam etgan bebaho boylikdir. Unda milliy ohanglar, ma'naviy uyg'unlik, insonparvarlik, ezgulik, sabr va muhabbat g'oyalari mujassam bo'lib, bu qadriyatlar maxsus ta'limda o'quvchilarning emotsional idroki, musiqiy didi va ijodiy faolligini rivojlantirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda defektologik ta'limda musiqiy terapiya, ritm mashg'ulotlari, interaktiv o'yinlar va multimediali texnologiyalar orqali o'quvchilarda musiqiy idrokni, eshitish faoliyatini va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishning samarali usullari joriy etilmoqda. Shu bois, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuriga tayanilgan musiqiy tarbiya metodlari orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida yangi bosqichni shakllantirish — maxsus ta'lim tizimining strategik yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda aynan shu jarayonning falsafiy-pedagogik asoslari, amaliy imkoniyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maqsad — musiqaning ijtimoiy va tarbiyaviy kuchidan foydalanib, maxsus ehtiyojli o'quvchilarni madaniy jihatdan yetuk, ijodiy faol va joriy hayot pozitsiyasiga ega shaxslar etib tarbiyalash imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tafakkur — inson ongining eng yuksak ko'rinishlaridan biri bo'lib, u borliqni idrok etish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Tafakkur amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi, aniq bilim va tajribalarga tayanadi hamda insonning bilish nazariyasi — gnoseologiyaning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqiy tafakkur esa insonning olamni musiqiy obrazlar, ohanglar, ritmlar orqali his etish, idrok qilish va anglash qobiliyatidir. U inson ruhiyatining nozik qatlamlariga singib kirib, go'zallikni his qilish, estetik qadriyatlarni anglash va ruhiy yuksalishga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi, milliy ohanglar va zamonaviy musiqiy ifoda vositalarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy boyitishda, insoniylik, ezgulik va go'zallikka intilish tuyg'ularini kamol toptirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ta'lim tizimida musiqiy tafakkurni rivojlantirish, ayniqsa nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy dunyosini kengaytirish, emotsional muvozanatini ta'minlash va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishda alohida o'rin tutadi. Musiqa san'ati orqali ular o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, ichki kechinmalarini uyg'unlashtirish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar. Shu jihatdan, musiqa madaniyatini rivojlantirish maxsus pedagogika tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u defektologik ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, ijodiy fikrlashi va o'zini anglash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuriga asoslangan yondashuv nogironligi bo'lgan o'quvchilarga nafaqat estetik zavq, balki hayotiy kuch, ruhiy dalda va o'z "men"ini anglash imkoniyatini beradi. Shu bois musiqiy madaniyatni rivojlantirish istiqbollari, ayniqsa maxsus ta'lim sohasida, o'quvchilarni jamiyatga integratsiyalash, ularning ijodiy va shaxsiy rivojini qo'llab-quvvatlashning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri — bu milliy meros, qadriyatlar va zamon ruhining uyg'un mahsulidir. Unda xalqimizning tarixiy kecmishi, ruhiy olami, orzu-intilishlari, estetik didi va ma'naviy qarashlari mujassamdir. Shu bois o'zbek milliy musiqasi nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalqning tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiy birligining ifodasidir. Maxsus ta'lim tizimida ushbu boy merosdan foydalanish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, g'urur va iftixor tuyg'usini

shakllantirishda, shuningdek ularning musiqiy didi va estetik sezgirligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashtirish davrida yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida musiqiy madaniyatni rivojlantirish — ijtimoiy va pedagogik jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan o'quvchilarni musiqiy tarbiya jarayoniga jalb etish ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, emotsional muvozanatini saqlash va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda samarali yo'ldir. Shu bois ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar quyidagi jihatlar bilan ahamiyat kasb etadi:

1. **Ma'naviy asos** – O'zbekistonning milliy taraqqiyot konsepsiyasida ma'naviyat ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, musiqiy tafakkur jamiyatda ma'naviy yangilanish, insoniylik va go'zallikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. **Pedagogik ahamiyat** – Musiqa madaniyati o'quvchilarning axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishiga ta'sir etadi, ularni insonparvarlik va ijobiy fikrlash ruhida tarbiyalaydi.

3. **Ijodiy rivojlanish** – Musiqiy tafakkur o'quvchilarning individual qobiliyatlarini ochib beradi, ularni ijodiy fikrlashga, musiqiy idrok va estetik zavq olishga yo'naltiradi.

Maxsus ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda milliy musiqiy merosdan ijodiy foydalanish zarurdir. Dars jarayonlarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari, maqom san'ati, bolalar uchun mo'ljallangan milliy va zamonaviy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarda musiqiy did, estetik idrok va milliy iftixor tuyg'usi shakllanadi.

Musiqiy tafakkur Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasida o'ziga xos o'ringa ega. Sharq musiqasi monodiyaga asoslanib, ohanglarning gorizontol rivojlanishi, ritmik boylik va tembr xilmaxilligi bilan ajralib turadi. G'arb musiqasi esa garmonik tizimga asoslanib, vertikal rivojlanish orqali musiqiy tafakkurda tahliliy va mantiqiy yondashuvni kuchaytiradi. Bu ikki yo'nalishning uyg'un o'rganilishi o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi, ularning estetik qarashlari va madaniy dunyoqarashini boyitadi.

Musiqa inson qalbini tarbiyalovchi, ruhiy kechinmalarni uyg'otuvchi, ijtimoiy birlik va mehr-oqibatni mustahkamlovchi kuchga ega. Shu sababli maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari o'quvchilarning ma'naviy kamoloti, estetik tarbiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri o'z ildizlarini qadimiy Sharq madaniy merosi, milliy qadriyatlar va xalq ijodidan oladi. Uning rivojlanishida musiqa ilmi, psixologiya, falsafa va pedagogika fanlari o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ayniqsa, maxsus ta'limda musiqiy tafakkur o'quvchilarning idrok, emotsional va estetik rivojida markaziy o'rin tutadi.

Rus olimi **Ye.Nazaykinskiy** musiqiy idrokning fiziologik mexanizmlarini tahlil qilib, uni eshitish, nerv tizimi va motor faoliyatining o'zaro ta'siri natijasi sifatida izohlaydi. Uning "motor o'xshashlik" va "interiorizatsiya" nazariyalari musiqani nafaqat tinglash, balki uni ichki his etish, tasavvur qilish orqali idrok etish mexanizmini tushunishga yordam beradi. Bu nazariy qarashlar maxsus ta'limda ham dolzarb bo'lib, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Chunki nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun musiqani faqat eshitish emas, balki qo'shiq aytish, harakat, ritm mashqlari orqali idrok etish ularning psixomotor rivojlanishiga, koordinatsiya va hissiy muvozanatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ichki eshitish" – ya'ni, ongda ohangni tasavvur qilish, musiqiy obrazni ichki tarzda his etish qobiliyati – o'quvchining tafakkur faoliyatini faollashtiradi, musiqiy idrokni chuqurlashtiradi.

Tarixan musiqiy tafakkurning rivojlanishida uch asosiy yondashuv shakllangan:

1. **Ilmiy-ratsionalistik yo'nalish** – yunon falsafasi va matematik tizim asosida musiqaning qonuniyatlarini tahlil qilishga asoslangan.

2. **Amaliy-emperik yo'nalish** – musiqani tajribaviy yo'l bilan o'rganish, ijodiy jarayon orqali anglashga tayanadi.

3. **Ma'naviy-diniy yo'nalish** – Qur'on, hadis va tasavvuf g'oyalariga asoslanib, musiqaning ruhiy-ma'naviy mohiyatini o'rganadi.

Ayniqsa, tasavvuf falsafasidagi "samo" g'oyasi musiqiy tafakkurning eng yuksak shakli sifatida inson ruhini poklash, qalbni uyg'otish va ichki uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

PEDAGOGIKA

Temuriylar davrida **Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin al-Husayniy va Kavkabi** kabi allomalar ushbu uch yo'nalishni uyg'unlashtirib, musiqiy tafakkurning ilmiy va estetik asoslarini yaratganlar.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkurini maxsus ta'lim amaliyotiga tatbiq etish nafaqat o'quvchilarning musiqiy madaniyatini, balki ularning ma'naviy olamini, hissiy muvozanatini, ijtimoiy faolligini va shaxsiy kamolotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamon ruhining uyg'unlashuvidan tashkil topgan murakkab madaniy hodisadir. Unda xalqimizning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari, estetik didi va ruhiy olami mujassamdir. Shu bois o'zbek milliy musiqasi nafaqat badiiy qadriyat, balki inson ruhiyatini, axloqini va tafakkurini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy vositadir. Bu jihatdan, u maxsus ta'lim tizimida, ayniqsa nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy, ma'naviy va estetik jihatdan rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ta'limda musiqa o'quvchilarning emotsional holatini muvozanatlashtirish, ruhiy bosimni kamaytirish, o'zini ifoda etish, muloqot va moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida olib borilgan musiqiy tarbiya nafaqat o'quvchining eshitish, ritm va ohangni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi, balki uning ichki dunyosini boyitadi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ayrim ommaviy madaniyat oqimlarida milliy musiqiy tafakkurga zid bo'lgan unsurlar – sayoz mazmundagi qo'shiqlar, chet el ohanglariga o'zbekcha so'z qo'yish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu jarayonlar yoshlarning, xususan, maxsus ehtiyojli o'quvchilarning musiqiy didini shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois defektologik ta'lim jarayonida o'zbek xalq qo'shiqlari, maqom, bolalar uchun yaratilgan milliy musiqiy asarlar va zamonaviy bastakorlarning namunalari tayanish zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarda milliy g'urur, estetik sezgirlik va o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantiradi.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkurini maxsus ta'limda qo'llashning istiqbollari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Sensor va psixomotor integratsiya** – musiqani harakat, ritm va sezgi orqali idrok etish, psixomotor rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

2. **Estetik va ma'naviy tarbiya** – milliy musiqiy meros asosida go'zallikni his qilish, ezgulik va mehr kabi fazilatlarni shakllantirish.

3. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar** – interfaol musiqiy o'yinlar, audiovizual vositalar, musiqa terapiya usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

4. **Ijodiy rivojlanish** – o'quvchilarda qo'shiq aytish, ritmik harakat, improvizatsiya kabi ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Tarixan musiqiy tafakkur inson kamoloti bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqiy kitob'i", Abu Hamid G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din" asari, shuningdek, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning fikrlarida musiqaning ruhiy tarbiya va inson kamolotidagi o'mi yuksak baholangan. Ularning nazarida musiqa — bu inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi, qalbni poklovchi, tafakkurni uyg'otuvchi ma'naviy qudratdir.

O'zbek musiqiy tafakkurining zamonaviy talqinida ham shu tamoyillar o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda o'zbek milliy musiqa madaniyati nogironligi bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda, ularning jamiyatdagi o'rini topishida samarali defektologik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki musiqa inson qalbini tarbiyalaydi, his-tuyg'ularni uyg'otadi, muloqot ehtiyojini kuchaytiradi va o'zini anglashga yordam beradi.

Maxsus ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya jarayoniga milliy musiqa an'analarini tatbiq etish – o'quvchilarning nafaqat badiiy-estetik, balki ijtimoiy, axloqiy va ruhiy kamolotini ta'minlaydi. Maqom, xalq qo'shiqlari va zamonaviy milliy musiqalar orqali o'quvchilarda ichki uyg'unlik, go'zallikni his etish va o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida anglash ko'nikmalari shakllanadi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri maxsus ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Musiqa bu jarayonda nafaqat san'at, balki terapiya, tarbiya va tafakkur manbai sifatida o'z o'rnini topmoqda.

XULOSA

Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish — bu nafaqat ta'limiy, balki chuqur ma'naviy, estetik va ijtimoiy jarayondir. Musiqa inson qalbiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi bo'lib, u nogironligi bo'lgan o'quvchilarning ichki dunyosini boyitadi, ularni ruhiy barqarorlik, mehr-muhabbat va ijobiy his-tuyg'ular sari yo'naltiradi.

Zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkuri milliy qadriyatlar, maqom san'ati, xalq qo'shiqlari hamda zamonaviy kompozitorlik ijodi uyg'unligida shakllanadi. Shu bois, ushbu musiqiy merosdan samarali foydalanish orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilarda estetik idrok, his-tuyg'ularni ifoda etish, ijtimoiy moslashuv va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Maxsus ta'lim tizimida musiqa tarbiyasining dolzarbligi shundaki, u o'quvchini o'z imkoniyatlarini anglashga, hayotga ijobiy qarashni shakllantirishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi. Bu jarayonda o'zbek musiqiy tafakkurining insonparvarlik, bag'rikenglik va go'zallikka intilish ruhida tarbiyaviy imkoniyatlari muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish — bu ularning ruhiy yuksalishi, ijtimoiy integratsiyasi va ma'naviy komillikka erishishiga xizmat qiluvchi istiqbolli yo'nalishdir. Shu sababli, maxsus ta'lim tizimida musiqiy tarbiya vositalarini modernizatsiya qilish, milliy musiqiy merosdan keng foydalanish hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қодиров Р.Ф. Музыка психологияси. —Тошкент: Музыка. 2005. —Б. 28.
2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. — Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 3-том. 2019. —Б. 102.
3. Сокол В.Б. Интенциональный разум и музыкальное мышление: феноменологическая дескрипция. Автореф. дисс. докт. филос. наук. Тюмень. 2015. — С. 11.
4. Орлова Т.С. Жанровый подход к обучению музыке в условиях дополнительного образования. 13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (музыка). Дисс. канд. пед. наук. Волгоград, 2019. — С. 25.
5. Кандаурова Л. Как слушать музыку. Изд-во «Альпина Дети». 2020. — С. 42.
6. Вызго Т.С. Развитие музыкального искусства Узбекистана и его связи с русской музыкой. (Ўзбекистонда musiqa san'atining rivojlaniishi va uning rus musikasi bilan aloqasi). —Москва: Музыка. 1970. —С. 70-71.